

INKLYUZIV TA'LIMDAGI BOLALARNING NUTQIDAGI TOVUSH TALAFFUZIDAGI KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Kasimova Maftunaxon Baxtiyorjon qizi

Andijon shahar 18-maktab va 18-DMTTda logoped

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim muhitida o'qiyotgan bolalarning nutqidagi tovush talaffuzidagi kamchiliklarni aniqlash, ularni tuzatish va to'g'ri talaffuzni shakllantirish usullari yoritiladi. Shuningdek, logopedik mashg'ulotlar, psixologik yondashuvlar va ota-ona hamkorligi orqali nutq rivojini qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, nutq kamchiligi, tovush talaffuzi, logopediya, nutq rivoji, psixologik yordam, ota-ona hamkorligi, nutq mashqlari, korreksiya usullari.*

Kirish

Inklyuziv ta'limda o'qiyotgan bolalarda nutqdagi tovush talaffuzidagi kamchiliklar ko'pincha rivojlanishdagi kechikishlar, til bilish darajasi, eshitish yoki psixologik omillar bilan bog'liq bo'ladi. Agar bu muammolar vaqtida aniqlanmasa, bola kommunikativ qobiliyatini to'liq rivojlantira olmaydi va ijtimoiy muhitda moslashuv qiyinlashadi.

Tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda eng asosiy vosita — logopedik mashg'ulotlar. Mashg'ulotlar individual yoki kichik guruhlarda o'tkazilib, har bir bolaning talaffuzdagi xatolari aniqlanadi va ularni tuzatishga yo'naltiriladi. Shuningdek, vizual va auditiv metodlar yordamida to'g'ri talaffuzni mustahkamlash samarali hisoblanadi.

Psixologik yondashuv ham muhim o'rin tutadi. Bola o'zining xatolaridan qo'rqmasligi va mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi uchun ijobiy muhit yaratiladi. Rag'batlantirish, e'tirof va muvaffaqiyatni kichik qadamlar bilan qadrlash bolaning motivatsiyasini oshiradi.

Ota-ona hamkorligi nutq kamchiliklarini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Uy sharoitida mashqlarni takrorlash, bola bilan muloqotda bo'lish va logopedning tavsiyalarini amalga oshirish nutq rivojini tezlashtiradi.

Shuningdek, interaktiv o'yinlar, qo'shiq va she'rlar orqali tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish ham samarali usuldir. Bolaning nutqini doimiy kuzatib borish, xatolarni aniqlash va muntazam mashqlar orqali bartaraf etish tizimli yondashuvni talab qiladi.

Inklyuziv ta'limdagi bolalarning nutqidagi tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish logopedik, psixologik va ota-ona hamkorligiga asoslangan kompleks yondashuv orqali amalga oshiriladi. Shu tarzda bola nutq qobiliyatini to'liq rivojlantiradi, ijtimoiy va ta'limiy muhitga muvaffaqiyatli moslashadi. Inson nutqi orqali o'z fikrini ifodalashga harakat qiladi. Nutq bir tomondan insonning o'ziga xos yakka xususiyatlarini, xarakterini, millatini ochib bersa, boshqa tomondan esa nuqsonli tomonlarini ko'rsatadi.

Bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida nutq benuqsonligining ahamiyati katta. Nutq – insonning muloqat, fikrlash va faoliyat jarayonida muhim psixik vazifani bajaradi. Inson nutqi tushunarli harakatlar chiqarayotgan tovush yoki so'zlarni ifodalab bera olidigan

harakatlar mahsulidir. Nutq bir tomondan inson ruhiyatini uning milliy asosdan kelib chiqqan hamda har bir kishiga xos bo‘lgan xususiyatlarini oyna kabi o‘zida aks ettirsa, ikkinchi tomondan uning ruhiyatidagi og‘riq jihatlarni aks ettiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklar uning kelajakda maktab ta‘limida yaxshi bilim olishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli ham kichik yoshidan boshlab bolalarning nutqiga e‘tibor berish lozim. Bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish ishlari albatta maxsus pedagogika ya‘ni logopediya zimmasiga tushadi.

Bolalar nutqi va nutqidagi buzilishlar orasida tovushni shakllantirishning buzilishi nisbatan keng tarqalgan bo‘ladi. Ularning yuzaga kelishida turli - tuman mexanizmlari mavjud bo‘lib, ko‘pincha ular orasida dizartriya nutq kamchiligi deb nomlanuvchi markaziy genezning nutqdagi organik patologiyasidir.

Bir qancha olimlar tomonidan, jumlandan F.de Sossyur til va nutqni ajratib, bu boradagi fikrlarini jamlab bu atamalarni «mutlaqo farqli» deb topadi. Ular uchun umumiy taraf nutq faoliyatidir.

Keyinchalik esa til va nutq o‘rtasidagi farqni kod va xabar, tizim va matn kabi farq sifatida ko‘ra boshladilar. Biroq, har bir ushbu birliklar tilga qanchalik aloqador bo‘lsa nutqqa ham shunchali tegishli ekani ko‘rinib qoldi, shu sababdan til nutq alomatlariga bilan aniqlashtiriladi va nutq ham til alomatlariga ko‘ra aniqlashadi.

Lingvistik tadqiqotlarda biron bir gapni aytishda til va nutq yagona ko‘rinishning ikki tarafi hisoblanadi.

1. Til:

- til abstrakt sxema hisoblanadi;
- til umumiy qonun-qoidalarga bo‘ysunadi;
- til potensial imkoniyatdir;
- til qat‘iy rasmiy tarzda ta‘riflanishi mumkin;
- til umumiy hodisa, u jamiyat qadriyatidir;
- til odamlarning jamoaviy tajribasini ifodalaydi, xalqning «olam sur‘tidir»dir;
- til maqsadga yo‘naltirilgan emas;
- til muomala xususiyatiga bog‘liq emas;
- til tarkib nuqtai nazaridan baholanishga yaramaydi;
- til–ijtimoiy hodisa;
- til barqarorlikka intiladi, u cheklangan;
- til tizimi ma‘lum darajada passiv va statikdir;
- til elementlari orasidagi munosabat funksional bog‘liqlikka asoslanadi; -til muvozanatli

strukturaga ega.

2. Nutq:

- nutq «moddiy»dir, aniq va betakror;
- nutq faoldir, u o‘z vaqtida amalga oshiriladi va fazoda tarqaladi;
- nutqni qat‘iy rasmiy tarzda ta‘riflab bo‘lmaydi;
- nutq– individual hodisa, u individning ijodiy faoliyati natijasi hisoblanadi;
- nutq u yoki bu insonning tajribasini ifodalaydi;



- nutq aniq bir maqsadda ifoda qilinadi;
- nutq vaziyatga ko‘ra shartlidir;
- nutq o‘z mundarijasiga ko‘ra baholanadi;
- nutq– psixologik hodisa;
- nutq dinamik xarakterga ega, o‘ta tarixiydir;
- nutq faol va dinamikdir;
- nutq elementlari orasidagi munosabat sababiyatlarning bog‘liqligiga asoslanadi; -nutq bir chiziq kabi tekisdir(chizg‘ichdir).

Nutqni qabul qilish jarayoni, N.I.Jinkin va I.A. Zimneylarning fikriga ko‘ra sensorli, idrok etish, tilning ma’naviy darajalarni o‘z ichiga oladi.

Nutq qabul qilish darajasining o‘ziga xosligi, o‘zaro turli darajada chegaralangan qabul qilish ob’ektlari bilan amalga oshiriladi. Shunday ekan, agar qabul qilish ob’ekti tovushlarni izolyatsiya qilsa, u holda til vositalari mavjudligi qaramay, «oddiy psixik akta sifatida» qabul qilishni anglash yoki bilishning eng oddiy darajasi amalga oshiriladi. Agar qabul qilish ob’ekt tovushlar uyg‘unligida (yoki bo‘g‘inlar) bo‘lsa, u holda jarayon tovushlar ketma-ketligi ehtimolining lingvistik baholanishini tarkibiga oladi va shartli ravishda aniqlik darajasi deb nomlash mumkin bo‘lgan darajaga yetadi. Biroq na tovushlar, na tovushlar uyg‘unligi nutqning ahamiyatli birligi hisoblanmaydi va shu sababdan nutqning ahamiyatli birligi bo‘lgan so‘zning eng kam nutq xabarini beruvchi birligi paydo bo‘lishi bilan qabul qilish ma’noli deb ataluvchi nutqning xos darajasiga yetadi.

B.G.Ananevaning fikriga ko‘ra, nutqni tinglash bola nutqini tarbiyasida asosiy hisoblanadi, u nutqning grammatik qoidalariga asoslangan jummalardagi so‘zlar munosabatini o‘rnatadi. F.A.Soxin nutqni tinglash tushunchasini tahlilini qila turi bunda mana bularni alohida ko‘rsatib o‘tadi: tinglash diqqati (u yoki bu ovoznining farqini tinglab turib, uni va yo‘nalishini ajrata olish); fonematik tinglash; nutq sur’ati va ritmini qabul qilish iqtidori.

A.F.Lomizov nutq tinglashni xarakterlar ekan, bir tomondan, urg‘u vositasida eshitish qobiliyati sifatida (so‘zlar va mantiqiy), turli xarakter va uzunlikdagi pauzalar, ovozning ko‘tarilishi va pasayishi, nutq sur’ati (temp) va ovoz tembrini aniq va to‘liq ilg‘ash, so‘zlovchining fikri va hissiyotini qabul qila olish. Boshqa tarafdin — ayni nutq ohangi elementlari vositasida tinglovchiga o‘z fikri va hissiyotini to‘liq va aniq yetkazib berish iqtidori. A.I.Maksakov nutq tinglovining muhim vazifasini bolalar tomonidan tovush imkoniyatlariga ega bo‘lgandagina muhim deb ko‘rsatadi: nutqi yaxshi rivojlangan bolalar, nafaqat ovoz o‘zgarishidagi farqlarni ilg‘aydi, balki yangrayotgan nutqning fonetik shakllanishidagi barcha nozik jihatlarni ham fahmlaydi. «Yaxshi rivojlangan nutq tinglovi ona tilidagi so‘zlar va ovozlarni, jummalarni aniq, ravshan va to‘g‘ri talaffuz qilishni ta’minlaydi, ... so‘zlarni talaffuz qilishda ovoz balandligini to‘g‘ri amalga oshirish, ohangdor va qat’iy sur’atda so‘zlash imkoniyatini ham beradi».

Fonetik, yaxlit bir tarzda, o‘zining uzunligiga bog‘liq emas, nafaqat nutqni aytish balki so‘zni shakllanishida ham bo‘lishi lozim. Fonetik birlik bo‘lgan so‘z bir bo‘g‘indagi urg‘uni alohida ko‘rsatish bilan o‘z darajasiga yeta oladi. Bo‘g‘inlar, so‘zlarning tarkibida bo‘lib, almashib keluvchi uzoqliklar va mushaklar tortilishi va bo‘shashishi vositasida yuzaga keladi, bunday vaziyatda aksariyat hollarda tegishli tarzda ovozning jarangdorligi tortilishi va

bo‘shashishi kuzatiladi. So‘zdagi biron bir bo‘g‘inni nisbatan baland va uzoq tarzda alohida ko‘rsatish so‘zlashdagi urg‘uni keltirib chiqaradi. So‘zlashdagi urg‘u mustaqil so‘zning muhim alomatlaridan biri hisoblanadi. U «<...>so‘zni shakllantiruvchi bo‘g‘inlar zanjiridan iborat bir bo‘g‘inning fonetik vositasi sifatida u yoki bu shaklda» aniqlanadi. An‘anaviy nuqtai nazardan, so‘zlashdagi urg‘u o‘zbek tilida (urg‘u berilgan bo‘g‘inni alohida ko‘rsatuvchi ovoz kuchi va balandligi xususiyatlari bilan farqlanadigan) kuch hisoblanadi. O‘zbek tilida so‘zlashdagi urg‘u barqaror emas. U so‘zdagi bo‘g‘inlarning soniga qarab boshidan oxirgacha tushib borishi ham mumkin. So‘zdagi urg‘uning shakli o‘zgarishi bir bo‘g‘indan boshqasiga va bir morfemadan boshqasiga o‘tishda sodir bo‘lishi mumkin. Bo‘g‘inlar soniga muvofiq tarzda urg‘u o‘rinlari muayyan ritmik kontur hosil qilishi mumkin.

Nutqni harakatga keltiruvchi analizatorning organik nuqsoni nafaqat nutq motorikining (tovushlarning artikulyatsiyalashgani) buzilishiga, balki ovoz, nafas, nutqning tempi va ritmi, uning ohangdor ifodalanishi buzilishiga ham olib keladi. Nutqni shakllantiruvchi nafas, ovoz va artikulyatsion organlar harakatining normal jarayoni aniq, hajm va quvvat jihatidan yetarli, tezkor va sinxron bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim va maktab ta‘limining rivojlanishi natijasida, bolalar nutqida uchraydigan nutq nuqsonlarni bartaraf etishda logopedik shoxobchalarning o‘rni juda katta. Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kuzatiladigan rinolaliya nutq nuqsoni, dizartriya nutq nuqsoni va duduqlanish nutq nuqsonlari logoped tomonidan maxsus logopedik mashg‘ulotlar yordamida bartaraf etiladi.

Logopedik mashg‘ulotlar yakka va guruhli tashkil etilib, og‘ir nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda (dizartriya nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni, duduqlanish nutq nuqsoni) kuzatiladigan nutq kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

Og‘ir nutq nuqsonli bolalar bilan o‘qituvchi – logoped korreksion – logopedik ishni tashkil etib, aniq reja asosida og‘ir nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar bilan ish olib boradi.

Duduqlanish nutq nuqsoni – bu nutq apparati muskullarining tortishish natijasida nutqning sur‘at-ohangining buzulishidir.

Dizartriya nutq nuqsoni – bu nutq apparati inervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir.

Rinolaliya nutq nuqsoni - bu nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir.

Inklyuziv ta‘lim — bu har bir bolaga, jumladan og‘ir nutq nuqsoniga (ONN) ega bo‘lgan bolalarga ham, teng ta‘lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan pedagogik tizimdir. Bunday bolalarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va ularni inklyuziv muhitda qo‘llabquvvatlash juda muhim hisoblanadi. Quyida shu mavzuda asosiy yo‘nalishlar va tavsiyalar keltirilgan:

1. Og‘ir nutq nuqsoniga ega bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari Psixologik jihatdan:

- Emotsional holati noustuvor bo‘lishi mumkin (tez xafa bo‘lish, o‘ziga ishonmaslik, ijtimoiy izolyatsiya).

- Muloqotda qiyinchiliklar tufayli o‘z fikrini ifoda etishda qiynaladi.

- Yoshdoshlari bilan munosabatda sustlik yoki tortishish holatlari kuzatiladi.



- Ehtiyojlarini bilintirishda alternativ usullardan foydalanishga moyil (jestlar, harakatlar, mimika va h.k.).

Pedagogik jihatdan:

- Nutq nuqsoni sababli o‘quv materialini o‘zlashtirishda sekinlik kuzatiladi.

- Eshitish va talaffuz faoliyatidagi buzilishlar fonematik eshitish, yozish va o‘qish ko‘nikmalariga ta’sir qiladi.

- Ta’lim jarayonida vizual materiallar va harakatli faoliyatlar yaxshi natija beradi.

- Individual yondashuv va korreksion ishlarni doimiy talab etadi. 2. Inklyuziv ta’limda ular bilan ishlashning asosiy tamoyillari

1. Individuallashtirilgan yondashuv:

Har bir bolaning nutq rivojlanish darajasi, ehtiyoji va qobiliyati inobatga olinishi lozim.

2. Multidissiplinar yondoshuv:

Pedagog, logoped, psixolog, defektolog va ota-onalarning hamkorligi muhim.

3. Qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish:

Sinfda ijobiy psixologik muhit bo‘lishi, nutq nuqsoniga ega bolaga nisbatan teng munosabat ta’minlanishi zarur.

4. Alternativ muloqot usullaridan foydalanish:

Piktogrammalar, kartochkalar, vizual jadvallar va texnologiyalar yordamida muloqotni yengillashtirish.

5. Motivatsiyani oshirish:

Bolaning har qanday kichik yutug‘i e’tirof etilishi va rag‘batlantirilishi kerak.

3. Amaliy tavsiyalar

- Logopedik mashg‘ulotlarni sinfdan tashqari individual ravishda tashkil etish.

- Matnli va vizual materiallarni uyg‘unlashtirish (rasmlar, video, audio).

- Nutq faoliyatini rivojlantiruvchi o‘yinlardan foydalanish.

- Ota-onalar bilan doimiy muloqot va ularga metodik tavsiyalar berish.

- Inklyuziv sinfdagi boshqa bolalarni ham hamdardlik va qo‘llab-quvvatlash ruhida tarbiyalash.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim sharoitida og‘ir nutq nuqsoniga ega bolalar bilan ishlashda asosiy maqsad — ularning nutq rivojlanishini ta’minlash bilan birga, shaxsiy va ijtimoiy adaptatsiyasini ham qo‘llab-quvvatlashdir. Pedagogik va psixologik yondashuvlar uyg‘unlashgan holda tashkil etilsa, bunday bolalarning ta’limdagi samaradorligi va ijtimoiy faolligi sezilarli oshadi. Ma’lumki, bugungi kunda inklyuziv ta’limning rivojlanishi oqibatida ko‘p bolalar jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘proq harakat qila boshladilar. Har bir bola ma’lum bir iste’dodga ega bo‘lib, u o‘zini namoyon etishda atrofdagilarni fikri, munosabatlari muhim rol o‘ynaydi. Insonlarning bola haqidagi fikri uni atrofdagilar bilan bo‘lgan shaxslararo munosabati, jamiyatda o‘zligini topishga, kasb egasi bo‘lishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta’limning ham asosiy g‘oyasi og‘ir nutq nuqsonga ega bo‘lgan bolalar, nafaqat og‘ir nutq nuqsonga ega bo‘lgan bolalar balki nogironligi bo‘lgan bolalarning o‘z kasbiga, mehnat yordamida o‘z-o‘zini moliyaviy ta’minlashga yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ачилова С.Ж. Особенности логопедической работы при дизартрии в специализированных дошкольных учреждениях. International scientific review. 88-91, 2020 г.
2. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fXrqqWoAAAAJ&citation_for_view=fXrqqWoAAAAJ:d1gkVwhDpl0C
3. Ачилова С.Ж. Корректирующая роль развития фонематического слуха у слабослышающих детей с нарушениями слуха. WEB OF SCIENTIST: МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ. 529-535, 2022 г.
4. Achilova Sevara Djasirkulovna. Mechanisms of creating a professional information environment in preparing future logical therapists to work with children with severe speech disorders. Modern American Journal of Social Sciences and Humanities ISSN (E): 30678153 Volume 01, Issue 07, October, 2025.
5. Ziyonet